

20. Каршибоев, С. (2022). Yosh yetakchining rahbarlikka xos psixologik jihatlari. Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы, 1(1), 464-467.

21. Аракулов, Г. Т. (2023). МЕДИКО-СОЦИАЛЬНАЯ РЕШЕНИЕ ПРОБЛЕМ ДЕТЕЙ С РАННИМ ДЕТСКИМ АУТИЗМОМ. Academic research in educational sciences, 4(TMA Conference), 872-877.

22. Arakulov, G. (2023). ТАЖОВУЗКОРЛИК-ЎСМИРЛАРДА ЗАМОНАВИЙ ПСИХОЛОГИК МУАММО СИФАТИДА. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 3(3), 15-21.

## TEXNIKA OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARNING ILMIY- TEXNIK IJODKORLIK FAOLIYATINI TARBIYALASHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK ASOSLARI

**Parmonov Abdutolib Abduvahob o'g'li**  
O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali  
[pabdutolib@gmail.com](mailto:pabdutolib@gmail.com)

**Annotatsiya:** Maqolada talabalar ilmiy-texnik ijodkorlik faoliyat jarayonida shaxsning ehtiyojlarini shakllantirish imkoniyatlari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Ijodkorlik, shaxs, jarayon, sifat, tarbiya, fikrlash, yetakchilik, munosabat, intilish, mahorat.

Texnika oliy ta'lim muassasalarida talabalarning ijodkorligi shaxsning ichki his-tuyg'usini rivojlantirish va tarbiyalash muammosiga yetakchi psixologlar vakillari e'tiborini qaratganlar. Ijodkorlikda shaxs hissiy ehtiyojini shakllantirish talabalarni ijodkorlikka tayyorlashning muhim vositalaridan biridir. Bu ishini samarali amalga oshirish esa, shaxs ichki ehtiyojining o'ziga xos bo'lish – psixologik jihatlari tabiati va uning rivojlanish qonuniyatlarini bilishni taqazo etadi.

Shu ma'noda talabalar ilmiy-texnikaviy ijodkorlik faoliyatida rahbarning shaxsiy sifatlari namoyon bo'ladigan uning tashkiliy – pedagogik va psixologik jihatlari talabalarda ehtiyojini tarbiyalashning asosiy manbai bo'lib xizmat qiladi.

Talabalar ilmiy-texnikaviy ijodkorlik faoliyati jarayoni shaxsning ehtiyojlarini shakllantirish va qondirish uchun keng imkoniyatlarga ega. Muvaffaqiyatga bo'lgan ehtiyoj deganda, shaxsning yuqori maqsad yoki natijaga erishishga bo'lgan intilishni tushuniladi. Bu ehtiyoj kishining faol izlanishi, tinib-tinchimaslik xususiyatlarini namoyon qiladi.

Birinchilikka erishi ehtiyojining aksi esa omadsizlikdan qochish (qo'rqish), loqaydlik va tanballik hisoblanadi. Bunday shaxslar muvaffaqiyatga erishidan ko'ra ko'proq ortiqcha ko'ngilsizlik, gap-so'zdan qochibgina ishlarni nomiga bajaradilar.

Hozirgi zamonda shaxsning muhim ijodkorlik faoliyati shakli sifatida fikrlash e'tirof etiladi. Fikrlash 3 ta o'ziga xos tavsifga ega.

- *Fikrlash* - bu har xil muammo masallalarni echishga yo'naltirilgan faoliyat;
- *Fikrlash* - bu inson ichki tuyg'usi bilan bog'liq amalga oshiriladigan faoliyat;

➤ *Fikrlash* - bu odamni o‘rab turgan muhit haqidagi tasavvur va tushunchalar asosida vujudga keladigan faoliyat bo‘lib, uning asosini fikrlash jarayoni tashkil qiladi.

Fikrlash jarayoni muammoli vaziyat vujudga keltirilgandan boshlab sodir bo‘ladi. Bu muammoli vaziyat qanday bo‘lishidan qat’iy nazar, unda bosh o‘rinda – sub’ektning ehtiyoji va imkoniyati o‘rtasidagi qarama-qarshilik turadi. Natijada ijodkor shaxs muammo echimini topish uchun ishchi farazni shakllantiradi. Boshqacha aytganda bu erdagi ijodkorlik masalasi muammoli vaziyatda o‘ziga xos fikrlash obrazi (modeli) hisoblanadi. Masalaning qo‘yilishi bilan nima qilmoq va nimani izlamoq (topmoq) kerak, buning uchun nimalar zarur degan ehtiyoj talablar paydo bo‘ladi. Shunday qilib, ijodkorlik masalasini muammoli vaziyatning modeli deyish o‘rinli bo‘ladi.

Yuqoridagi ehtiyoj fazilat va xususiyatlar talabalarning yosh xususiyatiga xos muhim shaxsiy sifatarga ham taalluqlidir. Ularda ana shunday ehtiyojlarni tarbiyalash imkoniyatlari ko‘p. Afsuski ana shunday qudratli ehtiyojni talabalarda tarbiyalash masalasi ba’zi tashkiliy – pedagogik va psixologik tadbirlarning sayozli yoki umuman yo‘qligi tufayli “ochilmagan qo‘riq” dek o‘zlashtirilmay kelinmoqda.

Bu erda yetakchilik ehtiyoj bilan muvaffaqiyatga ehtiyojlarni bir-biridan farqlash kerak bo‘ladi.


**Yetakchilik (liderstvo) ehtiyoji** – bu shaxsning boshqalardan oldinda bo‘lish, g‘alabaga erishish, o‘zining qarashlari bilan boshqalarni lol qoldirishga intilish kabi fazilatlar bo‘lib, bu ham ijodkorlik jarayonida muhim harakatlantiruvchi omil hisoblanadi. Tajribalarning ko‘rsatishicha, yetakchilikka intilish ehtiyoji uyg‘unlashganda talabalar ilmiy-texnikaviy ijodkorlik faoliyati eng yuqori kutilgan natijalarni beradi.

**Bilish ehtiyoji** – bu eng ko‘p tarqalgan va hayotiy tabiiy ehtiyoj hisoblanadi. Chunki har bir inson hamisha o‘zini o‘rab turgan dunyo (muhit) to‘g‘risida bilishga intilib yashaydi. Bu ehtiyoj talabalar ilmiy-texnikaviy ijodkorlik faoliyatida ishga vijdonan munosabatda bo‘lish vositasi sifatida muhim ahamiyatga ega. Buni uning barcha shakldagi ijodkorli jarayonini faollashtirishdagi roli orqali izoxlash mumkun. Tadqiqotlarga ko‘ra, ijodkorlikda bilishga ehtiyoji yuqori bo‘lgan shaxsning o‘zlashtirishi, ehtiyoji past shaxsnikiga qaraganda ikki marta yuqori bo‘ladi. Agar bu ehtiyojni shaxsning muvaffaqiyatga erishi ehtiyoji bilan uyg‘unlashtirishga erishilsa, u holda o‘zlashtirish yanada yuqori bo‘lishiga olib keladi.

**Munosabat ehtiyoji** – talabalar ilmiy-texnikaviy ijodkorlik faoliyatida munosabat psixologlar tomonidan alohida e’tirof etiladi. Chunki talaba ijodkorlik masalasi echimini topishda nafaqat kitoblar bilan muloqatda bo‘ladi va hatto shu sohaning yetakchi mutaxassisidan, rahbari va o‘rtoqlari bilan ham fikrlashadi. Bu ehtiyoj nerv-hissiy yuklanishi, asabiylashish, baxslashishga olib kelishi va ba’zi hollarda ijodkorlik masalasi echimining noto‘g‘ri bo‘lishiga olib kelishini nazarda tutadi. Umumiy holda bu ehtiyoj ijodkorlikga ijobiy ta’sir qilib, xususi (alohida)lik kasb etadi. Chunki hamma hollarda ham masalaning echimida ko‘plab kishilarning ishtirok etishi (ko‘maklashishi, munosabat bildirishi) shart emas.

Shaxsning ehtiyoji, jumladan yuqoridagi ijodkorlik faoliyatida kishi tomonidan hamisha ham to‘liq anglab olinavermaydi. Ehtiyojni aniqlash sababning xususiyatlarida yaqqol ko‘rinadi.

Insonlar har qanday faoliyatida bo'lgani singari talabalar ilmiy-texnikaviy ijodkorlik faoliyatida ham shaxs intilishi ta'sir doirasi o'ziga xos hatti – harakatlarga undaydigan sabablardan iborat ehtiyojga asoslanadi va u ma'lum maqsad (ob'ekt) sari intilishni ifodalaydi. Bu intilish esa o'z navbatida: 1. Masalani qo'yish; 2. Aqliy yoki jismoniy ta'sir; 3. Bajarish bosqichlari; 4. Maqsadga erishishlarni o'z ichiga oladi. Ularning har biri esa o'ziga xos motim pisixologik, tashkiliy – pedagogik va uslubiy ehtiyojlar asosida amalga oshib nihoyasiga etadi (1-shakl).



1-shakl. Talabalar ilmiy-texnikaviy ijodkorlik faoliyatida ehtiyojni 2-qondirishga intilish asoslari

Bu yerda ijodkorlik masalasining qo'yilishga asosiy e'tibor qaratiladi, chunki u maqsadga intilishning ta'sirlari ko'lamini rejalashtirish va boshqalarni aniqlash imkonini beradi.

Ijodkorlik masalasining qo'yilishi esa o'z navbatida intilishning ehtiyojni ifodalovchi motivlarni talab qiladi (ya'ni nima uchun zarur degan savolga javob izlashni taqazo qiladi). Shuningdek, nima qilish kerakligini tushunib etishini, nimalarni bajarish zarurligini aniqlashtiradi

Ilmiy-texnikaviy ijodkorlikda tushunish – maqsadga erishishning taxminiy asosini tashkil qiladi va u ijodkor shaxsning boshlang'ich bilimlari saviyasi, ilmiy rahbarning maslahati va ob'ektning ishlashini taxminiy ifodalovchi ko'rgazmali qurollar yordamida shakllantiradi.

Xullas talabalar ilmiy-texnikaviy ijodkorlik faoliyatida ijodkorlikga ehtiyojini tarbiyalash masalasi o'ziga xos psixologik va tashkiliy – pedagogik asoslarga ega. U ilmiy rahbarning har bir qatnashuvi shaxsining psixologik xususiyatlarini bilishini, chidam va matonat, mahorat, strategik va taktik tajriba va boshqarish san'atini talab qiladi.

Agar rahbar o'z sohasi bo'yicha etarli bilimga ega bo'lmasa, ishlarni tashkillashtirish uslubini takomillashtirib bormasa, talabalar o'rtasida o'rnak bo'ladigan obro'si bo'lmasa va nihoyat egallab turgan o'rniga munosib bo'lmasa, bunday pedagogik nafaqat talabalarda ehtiyojini tarbiyalay oladi, aksincha ularning ilmiy – texnikaviy ijodkorlikga bo'lgan ehtiyojini so'ndiradi. Talabalarni ijodkorlikka ehtiyojini tarbiyalashda ijodkorlik ishlari bo'yicha ko'rik tanlov va konferensiyalar o'tkazishning ahamiyati katta. Unda talabalar o'zlarining ijodkorlik g'oyalari to'g'riligiga ishonch xosil qiladilar va tuyg'ularini his qiladilar.

Ayniqsa ularning muvaffaqiyatlarini jamoa o'rtasida rag'batlantirish ijodkorlikka ehtiyojining yanada oshishiga olib keladi va ijodkorlikka intilishni shakllantirishning muhim psixologik omili bo'lib hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Abdutolib P., Marg'uba L. AMALIY MATEMATIKA TALABALARINI ISHLAB CHIQRISH KASBIY FAOLIYAT SOHASIGA QIZIQTIRISHDA AXBOROT-TEXNIK KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING RO'LI //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2023. – C. 510-513.

2. Abdutolib P. TALABALARDA AXBOROT-TEXNIK KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHDA OLIY TA'LIM TIZIMIDAGAI PEDAGOGIK SHART-SHAROITLAR //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2023. – C. 53-56.

3. Абдутолиб.. ОРГАНИЗАЦИОННО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ ФОРМИРОВАНИЯ ИНФОРМАЦИОННО-ТЕХНИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ НА ПРИМЕРЕ ТЕОРЕТИЧЕСКОЙ МЕХАНИКИ // CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS. – 2023. – Т. 4. – No 05. – С. 28-32.

4. Абдутолиб. ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ И МОДЕЛЬ ФОРМИРОВАНИЯ ИНФОРМАЦИОННО-ТЕХНИЧЕСКОЙ

КОМПЕТЕНТНОСТИ У СТУДЕНТОВ ПРИКЛАДНОЙ МАТЕМАТИКИ В БАКАЛАВРИАТЕ // Frontline Social Sciences and History Journal. – 2023. – Т. 3. – No 05. – С. 26-34.

5. Огли. А. А. ЗНАЧЕНИЕ ФОРМИРОВАНИЯ ИНФОРМАЦИОННО-ТЕХНИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У СТУДЕНТОВ, ИЗУЧАЮЩИХ ПРИКЛАДНУЮ МАТЕМАТИКУ, ИНТЕРЕСУЮЩИХСЯ В ОБЛАСТИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ // Очередные конференции ученых. – 2023. – С. 47-49.

6. Abduvahob o'g'li P. A. NAZARIY MEKANIKA FANINI O'QITISHDA TEXNIK–INFORMATSION KOMPETENSIYALARIGA QO'YILADIGAN MALAKA TALABLARI VA MAZMUNI //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2022. – С. 662-664.

7. Anarbayevich A. R., Abduvahob o'g'li P. A. BO'LG'USI MUTAXASSISNING SHAXS SIFATIDAGI QOBILIYATINI OSHRISHDA PEDAGOGIK VA AXBOROT TECHNOLOGIYALARINING O'RNI //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2022. – С. 673-676.

8. Пармонов А. Talabalarga zamonaviy ta'limni raqamli texnologiyalar yordamida berishning pedagogik zarurati //Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 202-204.

9. Юлдашев, Турсун и Клара Холманова. «НЕЛИНЕЙНОЕ ИНТЕГРО-ДИФФЕРЕНЦИАЛЬНОЕ УРАВНЕНИЕ ФРЕДГОЛЬМА С ВЫРОЖДАЮЩИМСЯ ЯДРОМ И НЕЛИНЕЙНЫМ МАКСИМУМ». *Журнал математики и информатики* 1.3 (2021).

10. Содиков, Тохир Аслиддинович, et al. "НЕКОТОРЫЕ МЕТОДЫ ПРИВЕДЕНИЯ К КАНОНИЧЕСКОМУ ВИДУ И ОПРЕДЕЛЕНИЯ ТИПА ДИФФЕРЕНЦИАЛЬНЫХ УРАВНЕНИЙ С ЧАСТНЫМИ ПРОИЗВОДНЫМИ." *МОЛОДОЙ ИССЛЕДОВАТЕЛЬ: К ВЕРШИНАМ ПОЗНАНИЯ*. 2023.

11. Holmanova, K. "Maksimum belgisi ostida funksional parametrlarni o'z ichiga olgan integro-defferensial tenglamalar sistemasi uchun boshlang'ich masala." *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ международный научный электронный журнал* (2022).

12. Baxtiyor, Po'latov, et al. "BA'ZI BIR MUHIM XOSMAS INTEGRALLARNI HISOBASHDA FURULLANI FORMULASIDAN FOYDALANISH." *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research* (2023): 363-367.

13. Holmanova, Klara. "MAKSIMUMLI DIFFERENSIAL TENGLAMALAR UCHUN YARIM O'QDA BOSHLANG'ICH MASALA." *Talqin va tadqiqotlar* 1.21 (2023).

14. Шарипова, С. (2022). Matematika fanlarini oqitishda innovatsion va axborot texnologiyalaridan foydalanish. *Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы*, 1(1), 352–355. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/zitdmrt/article/view/5090>

15. Р Абдуназаров, ЛУ Абдурашидова. Алгоритм восстановления оператора Дирака по двум спектрам. Министерство высшего образования, науки и инноваций министерство цифровых технологий республики Узбекистан Ташкентский университет информационных технологий имени Мухаммада ал-Хоразмий
16. Джалилов А., Абдухакимов С. Замечание о периодических точках интервальных отображений типа Фейгенбаума //Материалы конференции АИП. – Издательство АИП, 2023. – Т. 2781. – №. 1.
17. Alimardanovich N. T. CHIZIQSIZ TENGLAMALARNI TAQRIBIY YECHISH //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2022. – С. 323-327.
18. Уринбоев Ф. Ш., Маманов С., Горабеков О. НЕКОТОРЫЕ ГЕОМЕТРИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ ИНФОРМАТИКИ И КОММУНИКАЦИОННЫМ ТЕХНОЛОГИЙ //Актуальные научные исследования в современном мире. – 2016. – №. 5-4. – С. 125-127
19. Baxtiyor P. et al. BA'ZI BIR MUHIM XOSMAS INTEGRALLARNI HISOBLASHDA FRULLANI FORMULASIDAN FOYDALANISH //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2023. – С. 363-367.
20. Turakulov, Olim Kholbutayevich, and Uktam Haydarovich Halimov. "TENDENCIES FOR THE DEVELOPMENT OF TECHNICAL EDUCATION FOR FUTURE ENGINEERS." Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal 2022.2 (2022): 307-316.
21. Sobirovich P. B. Darajali Geometriyani Algebraik Tenglamalarda Qo 'Llab Asimptotik Yechimlarini Topish //E Conference Zone. – 2022. – С. 166-168.
22. Рабимкул, А., Иброҳимов, Ж. Б. ў., Пўлатов, Б. С., & Нориева, А. Ж. қ. (2023). АРГУМЕНТЛАРНИ ГУРУҲЛАРГА АЖРАТИБ БАҲОЛАШ УСУЛИДА КЎП ПАРАМЕТРЛИ НОЧИЗИҚЛИ РЕГРЕССИЯ ТЕНГЛАМАЛАРИНИ ҚУРИШ МАСАЛАЛАРИ. Educational Research in Universal Sciences, 2(2), 174–178. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/1704>
23. Po'latov, B., & Ibrohimov, J. (2023). BA'ZI RATSIONAL FUNKSIYALARNI INTEGRALLASHDA OSTRAGRADSKIY USULIDAN FOYDALANISH. Talqin Va Tadqiqotlar, 1(21). извлечено от
24. Xoljigitov D., Prnazarov S. H. Tenglamalar sistemasiga doir misollarni grafik usulda yechish //Журнал математики и информатики. – 2022. – Т. 2. – №. 1.

## **TALABALAR O'QUV FAOLIYATINING TURLARI VA XUSUSIYATLARI**

**Qarshiboyev Sardor Alisher o'g'li**

O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali

**Anorboyev Xayitboy Eshboy o'g'li**

O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali

[taa@jbnuu.uz](mailto:taa@jbnuu.uz)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada talabalarda o'quv faoliyati turlari va xususiyatlari, talabalarning o'quv faoliyatidagi muaffaqiyatlari, o'quv faoliyatiga